

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**MAMADALIYEV BOTIRJON MULLAAMINOVICH**

**BESH O‘LCHOVLI IKKI INDEKSLI PSEVDOYEVKLID FAZODA IKKI  
O‘LCHOVLI SIRTLAR GEOMETRIYASI**

**01.01.04 – Geometriya va topologiya**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Mamadaliyev Botirjon Mullaaminovich**

Besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda ikki o'lchovli sirtlar geometriyasi.....3

**Мамадалиев Ботиржон Муллааминович**

Геометрия двумерных поверхностей в пятимерном псевдоевклидовом пространстве индекса два.....21

**Mamadaliyev Botirjon Mullaaminovich**

Geometry of two-dimensional surfaces in the five-dimensional pseudo-euclidean space of index two.....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**MAMADALIYEV BOTIRJON MULLAAMINOVICH**

**BESH O‘LCHOVLI IKKI INDEKSLI PSEVDOYEVKLID FAZODA IKKI  
O‘LCHOVLI SIRTLAR GEOMETRIYASI**

**01.01.04 – Geometriya va topologiya**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.2.PhD/FM872 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti va Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Artikbayev Abdullaaziz  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Narmanov Abdigappar Yakubovich  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sultanov Bekzod Maqsud o'g'li  
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.3/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "7" sentyabr soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99878) 227-12-24, faks: (+99878) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (126 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99878) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "22" avgust kuni tarqatildi.  
(2023 yil "22" avgust da 2 raqamli restr bayonnomasi).



**A.Sadullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., akademik

**R.M.Jo'rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
f.-m.f.d. (PhD)

**R.B.Beshimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy seminar  
raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab fizika va kvant mexanikasiga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda musbat aniqlanmagan metrikali fazolarning masalalarini tadqiq qilishga keltiriladi. Vaqt va fazo orasidagi munosabatda vaqtni manfiy ishora bilan olish usuli, nisbiylik nazariyasi geometriyasini tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Riman metrikasining kanonik ko‘rinishida fazoga o‘xshash koordinatalari musbat, vaqtga o‘xshashlari esa manfiy koeffitsiyentga ega bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab texnik masalalar musbat aniqlanmagan metrikali fazolarni qo‘llash usuli bilan hal qilinadi. Shuning uchun psevdoyevklid fazoda sirtlar nazariyasi bo‘yicha olingan natijalar ham nazariy, ham tatbiqiy jihatdan ahamiyatli va zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonda psevdoyevklid fazo geometriyasini tadqiq qilish, ayniqsa, bu fazoda sirtlar geometriyasining masalalarini yechish zamonaviy geometriyaning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar psevdoyevklid fazo sirtlari nazariyasi bilan olib borilmoqda va olingan natijalarga tatbiq etilmoqda. Fizika, kvant mexanikasi va dinamik sistemalarga doir masalalar psevdoyevklid fazosining o‘lchovi fazo o‘lchovidan kichik bo‘lgan fazoostilari geometriyasi bilan bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli psevdoyevklid fazolarning fazoostilarining geometriyasiga doir turli masalalarni hal qilish, yangi natijalar olish va ularni amalda qo‘llash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda, ayniqsa, so‘nggi yillarda fundamental ilmga, xususan, matematika va fizika sohalarining dolzarb yo‘nalishlariga, muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan, gravitatsiya maydonlari, umumiy nisbiylik nazariyasi va geologik tomografiyaga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda funksiyalar nazariyasi, geometriya, topologiya va Riman sirtlari nazariyalari kabi yo‘nalishlar rivojiga alohida ahamiyat berilmoqda. Matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari hisoblangan “algebra va funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi, geometriya va topologiya, ehtimollar nazariyasi va matematik modellashtirish” ixtisosliklar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida olib borishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari etib belgilandi<sup>1</sup>. Bu borada differensial tenglamalar, kompleks analiz, geometriya va topologiya masalalarini hal etishda psevdoyevklid fazoda sirtlar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi № PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi № PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

va 2018 yil 27 apreldagi № PQ-3682 “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi, 2019 yil 9 iyuldagi № PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ko‘p o‘lchovli sirtlarning differensial geometriyasi bo‘yicha tadqiqotlar 20-asrning birinchi yarmida boshlangan. Yevklid va noyevklid fazolarda differensial geometriya bo‘yicha asosiy ishlarning tadqiqi B.A.Rozenfeldning monografiyasida keltirilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘sha davrdagi differensial geometriya bo‘yicha asosiy ishlar chiziqlar va sirtlarni o‘rganish bilan chegaralangan. Umuman, besh o‘lchovli fazoda ikki o‘lchovli sirtga doir ilmiy izlanishlar dastlab N.V.Shirobakinning 1984 yillardagi ilmiy ishlarida paydo bo‘lgan, bu yerda u tashqi differensial formalar yordamida reper qurish usuli bilan besh o‘lchovli yarim Yevklid fazoda ikki o‘lchovli sirt xossasini o‘rgangan.

Ko‘p o‘lchovli fazolar sirtlari geometriyasini o‘rganish fizik masalalar bilan bog‘liq. Odatda, fiziklar sakkiz o‘lchovli fazolardan ko‘proq foydalanadilar. Ba’zan fazo o‘lchovini pasaytirish uchun ikki yoki undan ko‘proq koordinatalarni birlashtirish usulidan foydalaniladi, bu usul Kallusi-Kleyn usuli deb nomlanadi. Shu yo‘l bilan besh o‘lchovli, Kleyn –Foka – Rumeraning kvant mexanikasining geometriyasiga doir, elementar zaryadlar mexanikasini o‘rganuvchi besh o‘lchovli fazo nazariyasi paydo bo‘lgan. N.S.Vladimirovning ishida, gravitatsiya va elektrostatika kuchlarining qonuniyati, uch o‘lchovli fazo koordinatalari bilan bog‘liqligi, (+, +, +, -, -) shakldagi besh o‘lchovli fazoga o‘tish yo‘li bilan hal qilinishi asoslab berilgan.

Bang-Yun Chenning ishlarida o‘lchovlari  $m < n$  bo‘lgan ko‘pxilliklarning  ${}^1R_n$  psevdoyevklid fazolaridagi xossalariga doir bir nechta ishlari paydo bo‘ldi. Bu ishlarda sirtlar Riman fazosida o‘rganilgan, tadqiqotlar tenzorlar yordamida olib borilgan. Yu.A.Aminov va uning shogirdlari besh o‘lchovli Yevklid fazosida chiziq va ba’zi ikki o‘lchovli sirtlar sinfini tadqiq qilgan, xususan, ikki o‘lchovli sirtning sfera va gipertekislikda yotish shartlari aniqlangan. Respublikamizda A.Artikbayev yarim Yevklid fazo geometriyasini o‘rganganda, yarim Yevklid fazolar psevdoyevklid fazolarning qism fazolari bo‘lishini aytib o‘tgan. Besh o‘lchovli psevdoyevklid fazo qism fazolari geometriyasi bilan B.Sultanov, Sh.Ismoilov shug‘ullanganlar. Ular o‘rgangan Galiley va izotrop fazolar  ${}^2R_5$  ning qism fazolari bo‘lib ajraluvchi metrikali fazolardir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya

tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Matematika” kafedrasining “Xususiy hosilali differensial tenglamalar, algebra, geometriya va analizning masalalari” ilmiy-tadqiqot loyihasi va Toshkent davlat transport universitetining “Funksiyalar nazariyasi, funksional analiz, differensial tenglamalar, extimollar nazariyasi va ularning qo‘llanishining ayrim masalalarini o‘rganish” mavzusidagi dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** besh o‘lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda ikki o‘lchovli sirtlar geometriyasini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

besh o‘lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda tekislik va gipertekisliklarning ichki geometriyalarini tavsiflash;

psevdoyevklid fazoda chiziq uchun Frene formulasi analogini topish va chiziqni sferada yotish shartini aniqlash;

ikki o‘lchovli sirtning nuqta atrofidagi geometriyasini va shu nuqtadagi normal fazo ichki geometriyasini aniqlash;

maxsus tanlangan ikki o‘lchovli sirtlar sinfida kuzatuvchi bazis topilgan va fazoda ikki o‘lchovli “butun” sirtlarning mavjudligi masalasini hal qilish.

**Tadqiqot obyekti** besh o‘lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda tekisliklar, gipertekisliklar, qism fazolar, chiziqlar va ikki o‘lchovli sirtlar hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** musbat bo‘lmagan metrika, sferalar, izotrop konus, chiziqning vektor tenglamasi, ikki o‘lchovli sirt, qism to‘plamlar geometriyasidan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishida noyevklid geometriyasining zamonaviy usullari, kompleks analiz, funksional analiz, differensial geometriya va topologiya zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

besh o‘lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda tekislik va gipertekisliklarning ichki geometriyasi Yevklid, Minkovski, izotrop va Galiley geometriyalaridan biri bo‘lishi isbotlangan;

psevdoyevklid fazoda chiziqlar nazariyasining asosiy formulalaridan biri bo‘lgan Frene formulasining analogi aniqlangan va berilgan egrilik funksiyalariga ko‘ra chiziqning mavhum radiusli sferaga tegishli bo‘lish sharti topilgan;

ikki o‘lchovli sirtga tegishli nuqta atrofining geometriyasi urinma tekislik yordamida aniqlangan va urinma tekislikning normallari orqali hosil qilingan fazo har doim uch o‘lchovli Minkovski fazosi ekanligi isbotlangan;

maxsus tanlangan ikki o‘lchovli sirtida kuzatuvchi bo‘lgan uch o‘lchovli fazo qurilgan va ichki geometriyalari bir xil bo‘lgan ikki o‘lchovli “butun” sirtlar uchun mavjudlik teoremlari isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** umumiy nisbiylik nazariyasida psevdoyevklid fazoda tekislik va gipertekisliklarning ichki geometriyalarini aniqlash va fizikada qo‘llanilishi ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** noyevklid geometriya, kompleks analiz va topologiyaning zamonaviy usullarini qo‘llash bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sirtning ikkinchi kvadratik formalarini qurish uchun bazis vektorlarni tanlash imkoniyati isbotlangan bo'lib, ular ikki o'lchovli sirtlar geometriyasini tasvirlashda qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati psevdoyevklid fazoda maxsus tanlangan ikki o'lchovli sirtlar geometriyasi uchun olingan natijalari differensial tenglamalar, kompleks analiz va ayrim to'la geometriya masalalarining yechimi fizika, kvant mexanikasi masalalariga qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda ikki o'lchovli sirtlar geometriyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

De-Sitter fazosidagi ikki o'lchovli sirtlar geometrik xarakteristikalariga doir natijalar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bajarilayotgan F-FA-2021-432 "Kichik massali rentgen qo'shaloq tizimlaridan olingan sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini tahlil qilish va qayta ishlash" (loyiha rahbari f.-m.f.d., prof. B.J.Ahmedov) loyiha ishini bajarishda gravitatsiya va elektrostatika kuchlarining qonuniyati besh o'lchovli fazoga o'tish yo'li bilan hal qilinishi asoslab berilgan (Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining 2023 yil 5 maydagi № 0123-98 raqamli ma'lumotnomasi). Gravitatsion maydon ta'sirini aniqlashda, besh o'lchovli fazoga o'tish va yuzaga kelgan astrofizik jarayonlarning matematik modelini qurish, hamda musbat aniqlanmagan metrikalarga bog'liq differensial tenglamalarini yechishda, yechim xossalarini geometrik usulda aniqlash imkonini bergan.

Besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda ikki o'lchovli sirtlar geometriyasi tadqiqotida olingan ilmiy natijalari № MD-758.2022 1.1-sonli shartnomaga asosan "Prezident granti asosida ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanildi. Rossiya Federatsiyasi yosh rus olimlari - fan doktorlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash" bo'yicha (2022-2023 yillar uchun FGBOU VO KamDU nomidagi Vitus Bering) mavzusidagi fundamental loyihasida musbat aniqlanmagan metrikalarga bog'liq differensial tenglamalarni yechishda qo'llanilgan (Камчатский государственный университет имени ФГБОУ ВО «КамГУ им. Витуса Беринга» 2023 yil 10 maydagi 04-196/10 raqamli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi bu fazoga tegishli sirtlarning xossalarini ifoda etuvchi differensial tenglamalarini yechishga, yechim xossalarini geometrik usulda aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 79 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning " ${}^2R_5$  psevdoyevklid fazosining asosiy tushunchalari" deb nomlanuvchi birinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Dissertatsiyaning ushbu bobida fazo ta'rifi,  ${}^2R_5$  fazoning gipertekisliklaridagi geometriya va  ${}^2R_5$  psevdoyevklid fazo sferalari haqida asosiy tushunchalar berilgan. Bundan tashqari, ba'zi olingan natijalar isbotlari bilan taqdim etilgan.

$A_5$  fazoda  $O(\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5)$  bazis berilgan bo'lsin. Bu fazoda affin koordinatalari bilan berilgan  $\vec{X}(x_1, x_2, x_3, x_4, x_5)$  va  $\vec{Y}(y_1, y_2, y_3, y_4, y_5)$  vektorlarni qaraylik.

**Ta'rif 1.1.1.**  $A_5$  fazoda  $\vec{X}$  va  $\vec{Y}$  vektorlarning skalyar ko'paytmasi

$$(\vec{X}, \vec{Y}) = x_1 y_1 + x_2 y_2 + x_3 y_3 - x_4 y_4 - x_5 y_5$$

formula bilan aniqlanib, uning bazis vektorlari uchun  $(\vec{e}_1, \vec{e}_1) = (\vec{e}_2, \vec{e}_2) = (\vec{e}_3, \vec{e}_3) = 1$ ,  $(\vec{e}_4, \vec{e}_4) = (\vec{e}_5, \vec{e}_5) = -1$ ,  $(\vec{e}_i, \vec{e}_j) = 0$   $i \neq j$  munosabatlar o'rinli bo'lsa,  $A_5$  fazo besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazo deyiladi va  ${}^2R_5$  ko'rinishda belgilanadi.

Vektor normasi vektorning o'zini-o'ziga skalyar ko'paytmasidan olingan kvadrat ildiz sifatida aniqlanadi

$$|\vec{X}| = \sqrt{(\vec{X}, \vec{X})} = \sqrt{x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 - x_4^2 - x_5^2}.$$

Tabiiyki, vektorni o'zini-o'ziga skalyar ko'paytmasi musbat, manfiy yoki nol bo'lishi mumkin.

**Ta'rif 1.1.2.**  ${}^2R_5$  fazoning izotrop vektorlar to'plami izotrop konusni tashkil qiladi. Izotrop konus nuqtalarining koordinatalari quyidagi tenglikni qanoatlantiradi

$$x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 - x_4^2 - x_5^2 = 0.$$

Izotrop konus fazoni ikki qismga, ya'ni haqiqiy va mavhum normal vektorlar to'plamiga ajratadi. Nisbiylik nazariyasida bu vektorlar mos ravishda fazoga o'xshash va vaqtga o'xshash vektorlar deb ataladi.

${}^2R_5$  fazodagi  $A(x_1, x_2, x_3, x_4, x_5)$  va  $B(y_1, y_2, y_3, y_4, y_5)$  nuqtalar orasidagi masofa  $\overrightarrow{AB}$  vektor normasi sifatida hisoblanadi, ya'ni

$$|AB| = \sqrt{(y_1 - x_1)^2 + (y_2 - x_2)^2 + (y_3 - x_3)^2 - (y_4 - x_4)^2 - (y_5 - x_5)^2}.$$

Ikki  $\vec{X}$ ,  $\vec{Y}$  vektor orasidagi  $\theta$  burchak

$$\cos\theta = \frac{(\vec{X} \cdot \vec{Y})}{|\vec{X}||\vec{Y}|}$$

formula bilan aniqlanadi.

Agar ikkita nolga teng bo'lmagan vektorlarning skalyar ko'paytmasi nolga teng bo'lsa, vektorlar ortogonal vektorlar deyiladi.

${}^2R_5$  fazoda koordinata boshidan o'tuvchi affin koordinatalarda

$$a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + a_4x_4 + a_5x_5 = 0$$

tenglama bilan berilgan  $\pi$  gipertekislikni qaraylik.

$\vec{N}(a_1, a_2, a_3, -a_4, -a_5)$  vektor  $\pi$  tekislikda yotgan barcha vektorlarga ortogonal bo'lib, tekislikning normal vektori deyiladi.

Koordinata boshi va  $\{\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5\}$  bazis vektorlar berilgan bo'lsin,  ${}^2R_5$  fazoning tekislik va gipertekisliklaridagi hosil bo'lgan geometriyalarni aniqlaylik.

Parallel ko'chirishda tekisliklarning ichki geometriyasi o'zgarmaydi. Shuning uchun biz koordinata boshidan o'tuvchi tekisliklarning geometriyasini ko'rib chiqamiz.

Dastlab gipertekisliklarning geometriyasini ko'rib chiqaylik.  $\{\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5\}$  bazis vektorlar mavjud bo'lib, ularni ikkita variantda tanlash mumkin bo'lgan to'rtta chiziqli erkli vektor mavjud: ular  $\{\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4\}$  yoki  $\{\vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5\}$  boshqa variantlar ularga ekvivalent.

Birinchi holda, to'rt o'lchovli faqat bitta mavhum bazisga ega qism fazosini qarasaq, u holda gipertekislikning ichki geometriyasi to'rt o'lchovli  ${}^1R_4$  Minkovski geometriyasi bo'ladi.

Ikkinchi holda, bitta haqiqiy uzunlikdagi bazis vektori bo'lmasa, gipertekislikning geometriyasi  ${}^2R_4$  to'rt o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazo bo'ladi. Shuning uchun  ${}^2R_5$  fazoda ikkita to'rt o'lchovli  ${}^1R_4$  va  ${}^2R_4$  qism fazolar mavjud.

Tadqiqot obyekti ikki o'lchovli sirtlardir, shuning uchun biz  ${}^2R_5$  fazoning ikki o'lchovli tekisliklariga alohida e'tibor qaratamiz.  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirtlarning urinma tekisliklari ikki o'lchovli tekisliklar bo'ladi. Bundan tashqari,  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirtning ichki geometriyasi uning urinma tekisligining geometriyasi bilan belgilanadi.

$\{\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5\}$  bazisdagi ikkita bazis vektorga parallel bo'lgan ikki o'lchovli tekislikning geometriyasi bu bazis vektorlarining turi bilan aniqlanadi. Bazis vektorlari  $(\vec{e}_i, \vec{e}_j)$  ikkalasi ham haqiqiy (yoki mavhum) normaga ega bo'lsa, tekislikdagi geometriya  $R_2$  Yevklid geometriyasi bo'ladi.

Agar ulardan biri haqiqiy, ikkinchisi mavhum bo'lsa, u holda tekislikdagi geometriya  ${}^1R_2$  Minkovskiy geometriyasi bo'ladi.

Ikki o'lchovli tekislikning bazis vektorlari haqiqiy va izotrop vektorlar bo'lsa, tekislikdagi geometriya  $R_2^1$  Galiley geometriyasi bo'ladi.

Bazis vektorlari ikkalasi ham izotrop bo'lgan alohida holi mavjud bo'lib, bu holda tekislik Minkovskiy tekisligini ifoda etadi.

Sfera deb fazoda berilgan nuqtadan teng masofada joylashgan nuqtalar to'plamiga aytiladi.  ${}^2R_5$  fazoda sfera uch usulda aniqlanadi. Ikki nuqta orasidagi masofa uch xil aniqlangani kabi sferalar ham mos ravishda haqiqiy, mavhum va nol radiusli bo'ladi.

Markazi koordinata boshida joylashgan va radiusi  $r$  bo'lgan haqiqiy radiusli sfera tenglamasi

$$x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 - x_4^2 - x_5^2 = r^2. \quad (1.3.1)$$

Bu sfera affin ma'noda giperbolik sirt bo'lib, uning yasovchilari ikki o'lchovli tekisliklardan iborat.

Xuddi shunday, mavhum radiusli sfera ham giperbolik sirt bo'lib, yasovchilari ikki o'lchovli tekisliklardan iborat, uning tenglamasi

$$x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 - x_4^2 - x_5^2 = -r^2. \quad (1.3.2)$$

Uchinchi sfera,  ${}^2R_5$  fazoning nol radiusli sferasi bo'lib, u (1.1.2) izotrop konusga mos keladi.

${}^2R_5$  fazo sferasidagi geometriyani ko'rib chiqayotganda, haqiqiy va mavhum radiusli sferalardagi geometriyalarni bir xil deb hisoblash mumkin.

B.A.Rozenfeldning monografiyasida egriligi o'zgarmas giperbolik fazolar, diametral qarama-qarshi nuqtalari psevdoyevklid fazo sferasi nuqtalariga izometrik to'plam sifatida aniqlanadi. Giperbolik fazolar egriligi manfiy va o'zgarmas Riman fazolaridir.

${}^2R_5$  psevdoyevklid fazo sferasidagi geometriya giperbolik fazolarga izometrik ekanligini aniqlaylik.

**Teorema 1.3.1.**  ${}^2R_5$  fazoning mavhum radiusli sferasining diametral qarama-qarshi nuqtalar to'plami  ${}^2S_4$  giperbolik fazoga izometrikdir.

**Ta'rif 1.3.1.** Agar fazoning egriligi  $K < 0$  o'zgarmas bo'lib, uni mavhum radiusli sfera sifatida ifodalash mumkin bo'lsa, u ikkinchi turdagi de-Sitter fazosi deyiladi.

B.A.Rozenfeldning monografiyasida  ${}^2R_5$  fazoning mavhum radiusli sfera nuqtalari to'plami diametral qarama-qarshi nuqtalari bilan aniqlansa  ${}^2S_4$  giperbolik fazo deb ataladi. Bu ta'riflar ekvivalentdir. Demak,  ${}^2S_4$  giperbolik fazo ikkinchi turdagi de-Sitter fazosi ekan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi, "Besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazo qism to'plamlari geometriyasi" deb nomlangan bo'lib, to'rtta paragrafdan iborat. " ${}^2R_5$  ning qism fazolaridagi geometriya" to'g'risidagi bandida turli

o‘lchovdagi giperbolik fazolar mavjudligi isbotlangan va de-Sitter fazosining talqini keltirilgan. Bunda Lobachevskiy fazosini Yevklid fazosiga talqin qilish usuli qo‘llanilgan. Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi  ${}^2R_5$  da fazoviy chiziqlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Paragraf so‘ngida chiziqning  ${}^2R_5$  fazo sferasiga tegishli bo‘lish shartlari berilgan.

Fizika va kvant mexanikasining geometrlashtirishda o‘lchovlarni pasaytirish usuli qo‘llaniladi. Buning uchun ba‘zi koordinatalar o‘zgarmas yoki bir-biriga chiziqli bog‘liq deb hisoblanadi. Masala fazoda emas, balki uning qism fazosida ko‘rib chiqiladi. Yuqori o‘lchovli Yevklid fazolari geometriyasida o‘lchovning pasayishi fazo geometriyasiga ta‘sir qilmaydi. Ammo psevdoyevklid fazoda o‘lchovni pasaytirish qaralayotgan fazoning geometriyasini o‘zgartiradi. Shuning uchun biz  ${}^2R_5$  fazoning qism fazolarida turli geometriyalar mavjudligini isbotlaymiz. Biz, asosan, uch va to‘rt o‘lchovli qism fazolarni ko‘rib chiqamiz.

B.Sultanov ishida Galiley fazosining geometriyasi  $M(x_1, x_2, x_3, x_2, x_3) \subset {}^2R_5$  qism fazoda hosil bo‘lishi isbotlangan. Ko‘rib chiqilayotgan  $M \subset {}^2R_5$  qism fazoda  $x_2 = x_4$  va  $x_3 = x_5$ .  ${}^2R_5$  fazoda  $M(x_1, x_2, x_3, x_2, x_3)$  qism fazo Galiley geometriyasidan iborat. Galiley fazosi ajraluvchi metrikaga ega va bu geometriya psevdoyevklid fazoning geometriyasidan ancha farq qiladi.

${}^2R_5$  fazoning qism fazolari ichida ajraluvchi metrikalarga ega bo‘lganlarini aniqlaymiz.

**Teorema 2.1.1.**  $I(x_1, x_2, x_3, x_3, x_4)$  qism fazo  ${}^{10}R_4^3$  psevdooizotrop fazo hisoblanadi.

2.1.1-teoremadan quyidagi xulosa kelib chiqadi.

**Natija 2.1.1.**  $x_4 = 0$  shartda,  $I_0(x_1, x_2, x_3, x_3, 0) \subset I(x_1, x_2, x_3, x_3, x_4)$  qism fazo uch o‘lchovli  $R_3^2$  izotrop fazo bo‘ladi.

${}^{10}R_4^3$  –fazo ajraluvchi metrikaga ega bo‘lgan fazo bo‘lib, uning sferasidagi geometriya, 2.1.1 xulosada ko‘rsatilgan.  ${}^{10}S_3^2$  fazo ham ajraluvchi metrikaga ega bo‘lgan giperbolik fazodir. Yarim elliptik yoki yarim giperbolik fazolar ajraluvchi metrikaga ega bo‘lgan fazolar sferalarida paydo bo‘lganligi sababli,  ${}^2R_5$  da barcha uch o‘lchovli yarim elliptik va yarim giperbolik fazolar mavjud.

${}^2R_5$  fazoostlarining geometriyasi sifatida uch o‘lchovli giperbolik fazolarni sanab o‘tamiz.

1.3.1 teoreмага ko‘ra, sferadagi geometriya  ${}^2S_4$  giperbolik fazo bo‘lganligi sababli, uning koordinata tekisliklari bo‘yicha kesimi to‘rt dan kichik o‘lchovdagi giperbolik fazoni hosil qiladi.

$x_i = 0$ ,  $i = 1, 2, 3$  bo‘lsa, uning sfera bilan kesimida  ${}^2S_3$  giperbolik fazo hosil bo‘ladi.

Shuningdek,  $x_4 = 0$  yoki  $x_5 = 0$  bo‘lganda  ${}^1S_3$  giperbolik fazo, uch o‘lchovli Lobachevskiy fazosini aniqlaydi.

Shunday qilib,  ${}^2R_5$  ning barcha qism fazolari uch o'lchovli giperbolik fazolarni o'z ichiga oladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ular  ${}^2R_5$  fazo sferasini gipertekislik bilan kesishishidan hosil bo'ladi.

${}^2R_5$  fazo sferasining ajraluvchi metrikaga ega bo'lgan qism fazolarida yarim giperbolik fazolar hosil bo'ladi.

**Lemma 2.1.1.**  ${}^2R_5$  psevdoyevklid fazoning gipertekisliklari psevdoyevklid yoki yarim Yevklid metrikaga ega.

Shunday qilib,  ${}^2R_5$  fazoda Yevklid metrikasi bo'lgan to'rt o'lchovli qism fazo yo'q degan xulosaga kelishimiz mumkin. Uch o'lchovli elliptik fazoning geometriyasi to'rt o'lchovli fazo sferasida talqin qilinganligi sababli,  ${}^2R_5$  ning qism fazolarda uch o'lchovli elliptik fazo mavjud emas degan xulosaga kelamiz.

Biz  ${}^2R_5$  fazoda ikki o'lchovli butun sirtlar mavjudligini isbotladik, ularning urinma tekisliklari Yevklid teksiligidan iborat. Bu esa  ${}^2R_5$  fazodagi ikki o'lchovli ko'pxillikka misol bo'ladi.

Shuning uchun  ${}^2R_5$  fazoda ikki o'lchovli  $M_2$  ko'pxillik borligini ta'kidlashimiz mumkin.

Berilgan masala  ${}^2R_5$  fazodagi qism ko'pxilliklarning maksimal o'lchamini aniqlashni talab qiladi.

**Teorema 2.1.2.**  ${}^2R_5$  fazoda  $M$  ko'pxillikning maksimal o'lchami uchga teng.

${}^2R_5$  fazoda ikki o'lchovli tekisliklardagi geometriyani alohida ko'ramiz. Ikki o'lchovli affin tekisliklarda uch xil geometriya mavjud, ya'ni nuqtalar orasidagi masofani aniqlashning uch xil usuli mavjud bo'lib, ular tekislikning affin almashtirishini saqlaydi. Bu esa uchta tekislik geometriyasini aniqlaydi, ya'ni ular Yevklid, Minkovskiy va Galiley tekisligidan iborat.

Ma'lumki, tekislikdagi kollinear bo'lmagan ikkita vektor tekislikdagi affin koordinatalar sistemasini to'liq aniqlaydi. Lekin bu tasdiq har doim ham to'g'ri emas.

**Teorema 2.2.1.** Minkovskiy fazosida  $\vec{a}$  va  $\vec{b}$  vektorlar har doim ham bu vektorlarga parallel bo'lgan tekislikning bazis vektorlari bo'la olmaydi.

${}^2R_5$  psevdoyevklid fazoda ixtiyoriy ikki o'lchovli tekislik geometriyasi haqida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

**Tasdiq 2.2.1.**  ${}^2R_5$  fazoda aniqlangan ixtiyoriy ikki o'lchovli tekislikdagi geometriya bu tekislikka parallel bo'lgan izotrop vektorlarning mavjudligi bilan aniqlanadi.

1) Agar tekislikka parallel bo'lgan izotrop yo'nalish mavjud bo'lmasa, Yevklid geometriyasi.

2) Tekislikka parallel bo'lgan bitta izotrop yo'nalish mavjud bo'lsa, Galiley geometriyasi.

3) Tekislikka parallel ikkita izotrop yo'nalish mavjud bo'lsa, u holda Minkovskiy geometriyasi hosil bo'ladi.

${}^2S_4$  fazodagi  $X$  – nuqta radius vektori bo‘lsin. U holda  $X^2 = -1$ . Demak, har qanday  $(x_1, x_2, x_3, x_4, x_5) \in {}^2S_4$  nuqta uchun (1.3.2) shart bajarilar ekan.

$X$  nuqtaning  $x_5 = 1$  urinma tekislikdagi markaziy proeksiyasini  $T_X$  bilan belgilaymiz.

$$\text{Bundan } T_X = \frac{X - (X \cdot \vec{e}_5)\vec{e}_5}{(X \cdot \vec{e}_5)} \text{ yoki } T_X \text{ } x_5 = 1 \text{ tekislikda } \left( \frac{x_1}{x_5}, \frac{x_2}{x_5}, \frac{x_3}{x_5}, \frac{x_4}{x_5}, 1 \right)$$

koordinatalariga ega.

**Lemma 2.3.1.**  ${}^2S_4$  fazoning  $T_X$  akslantirishi  $i$ –o‘lchovli tekisliklarni  $i$ –o‘lchovli tekisliklarga ( $i = 0, 1, 2, 3$ ) akslantiradi.

**Teorema 2.3.1.**  $T_X$  – akslantirishda  ${}^2S_4$  fazodagi nuqta,  ${}^1R_4$  fazoning haqiqiy radiusli sferasi ichiga akslanadi.

${}^2R_5$  da tabiiy parametr ga nisbatan vektor tenglamasi bilan berilgan  $\gamma$  chiziqni

$$r(s) = x_1(s)\vec{e}_1 + x_2(s)\vec{e}_2 + x_3(s)\vec{e}_3 + x_4(s)\vec{e}_4 + x_5(s)\vec{e}_5. \quad (2.4.1)$$

ko‘rib chiqaylik.

Biz  ${}^2R_5$  fazoda Frene formulasi ning analogini hosil qildik

$$\begin{cases} \xi'_1 = k_1 \vec{\xi}_2 \\ \xi'_2 = -k_1 \vec{\xi}_1 + k_2 \vec{\xi}_3 \\ \xi'_3 = -k_2 \vec{\xi}_2 + k_3 \vec{\xi}_4 \\ \xi'_4 = k_3 \vec{\xi}_3 + k_4 \vec{\xi}_5 \\ \xi'_5 = k_4 \vec{\xi}_4. \end{cases}$$

Yuqorida ta‘riflanganidek, de-Sitter fazosi  ${}^2R_5$  fazoning mavhum radiusli sferasi ning diametral qarama-qarshi nuqtalarini bitta nuqta deb qarab, shu nuqtalarga izometrik nuqtalar to‘plami sifatida tushunamiz. Demak, chiziq  ${}^2R_5$  fazoning mavhum radiusli sferasida yotsa, u de-Sitter fazosidagi chiziqqa ekvivalent bo‘lar ekan.

${}^2R_5$  dagi  $\gamma$  chiziq vektor tenglama bilan berilgan bo‘lsin. Agar  ${}^2R_5$  fazoning mavhum radiusli sferasi ning markazi koordinatalar boshida bo‘lsa, (2.4.1) tenglik bilan berilgan  $\gamma$  chiziq  $r^2(s) = -a^2$  tenglikni qanoatlantirsa,  $\gamma$  chiziq sferada yotadi.

**Teorema 2.4.1.**  ${}^2R_5$  fazodagi chiziq mavhum radiusli sferaga tegishli bo‘lishi uchun uning  $k_1, k_2, k_3, k_4$  – egriliklari

$$\frac{d}{ds} \frac{1}{k_4} \left[ \frac{d}{ds} \frac{1}{k_3} \left( \frac{d}{ds} \left[ \frac{1}{k_2} \frac{d}{ds} \left( \frac{1}{k_1} \right) \right] + \frac{k_2}{k_1} \right) - \frac{k_3}{k_2} \frac{d}{ds} \left( \frac{1}{k_1} \right) \right] = \frac{k_4}{k_3} \left( \frac{d}{ds} \left[ \frac{1}{k_2} \frac{d}{ds} \left( \frac{1}{k_1} \right) \right] + \frac{k_2}{k_1} \right) d$$

ifferensial tenglamani qanoatlantirishi kerak.

$n$ –o‘lchovli psevdoyevklid fazodagi chiziqlar va sirtlar geometriyasi B.A.Rozenfeld monografiyasida ko‘rilgan. “ko o‘lchovli” sirtlarning geometriyasi

esa, ya'ni  $m$  ( $1 < m < n - 1$ ) o'lchovli sirt qaralmagan. Lekin  $R_5$  Yevklid fazosida  $n - m = 3$  ko o'lchovli bo'lgan  $F^2$  sirt o'rganilgan hamda uning to'rt o'lchovli sfera va gipertekislikka tegishli bo'lish sharti ko'rib chiqilgan.

${}^2R_5$  da ikki o'lchovli sirtlarning umumiy nazariyasini o'rganish juda murakkab. Bu murakkablik  ${}^2R_5$  -fazo metrikasining o'ziga xosligi va ikki o'lchovli sirt yordamchi reporni tanlashning murakkabligi bilan bog'liq.  $R_5$  Yevklid fazosida ham xuddi shunday murakkablik mavjud. Shuning uchun Yu.A.Aminovning monografiyasida  $F^2$  sirt maxsus tanlangan

$$r(u, v) = \rho(u) + v\vec{\xi}_5$$

tenglama bilan berilgan. Bu yerda  $\vec{\xi}_5$  - sirtning normal vektori,  $\rho(u)$  - chiziq tenglamasi. Bu sirt yo'naltiruvchisi  $\vec{\rho}(u)$  bo'lgan chiziqli sirtidir.

${}^2R_5$  da  $O\{\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5\}$  -koordinatalar sistemasi va ikki o'lchovli regulyar  $F^2$  sirt

$$\vec{r}(u, v) = \sum_{i=1}^5 x_i(u, v)\vec{e}_i, \quad x_i(u, v) \in C^k(D) \quad (3.1.1)$$

vektor tenglama bilan berilgan bo'lsin. Bu yerda qaralayotgan masalaga qarab  $k = 2$ .

Sirtning birinchi kvadratik formasi  $R_5$  Yevklid fazosining analogi sifatida aniqlanadi.

Shuning uchun biz  ${}^2R_5$  da sirtlarning maxsus sinfini qaraymiz.  ${}^2R_5$  da  $O$  koordinatalar boshi va  $\{\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3, \vec{e}_4, \vec{e}_5\}$  bazis vektorlar berilgan bo'lsin. Ushbu koordinatalar sistemasida vektor tenglama bilan berilgan  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirtini qaraylik.

$$\vec{r}(u, v) = x_1(u)\vec{e}_1 + x_2(u)\vec{e}_2 + z(u, v)\vec{e}_3 + y_1(v)\vec{e}_4 + y_2(v)\vec{e}_5, \quad (3.1.3)$$

bu yerda  $x_1(u), x_2(u), z(u, v), y_1(v), y_2(v) \in C^2(D)$  ( $u, v$ )  $\in D$  funksiyalar uchun o'rinli.

$F^2$  sirtning tenglamasi (3.1.3) ko'rinishda berilganda, uning birinchi kvadratik formasining diskriminanti

$$EG - F^2 = z_v'^2(x_{1u}'^2 + x_{2u}'^2) - z_u'^2(y_{1v}'^2 + y_{2v}'^2) - (x_{1u}'^2 + x_{2u}'^2)(y_{1v}'^2 + y_{2v}'^2)$$

musbat, manfiy va hatto nolga teng bo'lishi mumkin.

Fizikaning ko'pgina masalalarida besh o'lchovli fazoda sirtning koordinatalari birinchi uchta fazoviy, keyingi ikkitasi vaqtga o'xshash yoki aralash komponentlarga bog'liq tanlanadi. Biz ham  $u$  va  $v$  parametrlarni ushbu yondashuvni hisobga olgan holda tanladik, bu yerda  $u$  fazoviy koordinatalarga,  $v$  esa vaqtga o'xshash koordinatalarga bog'liq.  $z(u, v)$  - ko'rib chiqilayotgan obyektning asosiy funksiyasini ifodalaydi.

$\vec{r}_u$  va  $\vec{r}_v$  vektorlardan foydalanib  $W$  normal fazoning bazis vektorlarini aniqlaymiz.  $\vec{r}_u$  va  $\vec{r}_v$  vektorlarning koordinatalaridan quyidagi vektorlarni tuzamiz.

$$\vec{N}_1 = x_{2u}'\vec{e}_1 - x_{1u}'\vec{e}_2, \quad \vec{N}_2 = y_{2v}'\vec{e}_4 - y_{1v}'\vec{e}_5.$$

$\vec{r}_u, \vec{r}_v, \vec{N}_1, \vec{N}_2$  vektorlarning vektorial ko'paytmasini aniqlaymiz:

$$\vec{N}_3 = [\vec{r}_u' \vec{r}_v' \vec{n}_1 \vec{n}_2].$$

**Lemma 3.2.1.**  $\vec{r}_u, \vec{r}_v, \vec{N}_1, \vec{N}_2$  va  $\vec{N}_3$  vektorlar besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoning  $x \in F^2$  nuqtasida bazis tashkil qiladi.

$\vec{n}_1, \vec{n}_2, \vec{n}_3$  vektorlar  $\vec{r}_u, \vec{r}_v$  vektorlarga ortogonal bo'lgani uchun ular  $x \in F^2$  nuqtada  $W$  normal fazoga tegishlidir.

**Teorema 3.2.1.**  $F^2 \subset {}^2R_5$  ikki o'lchovli sirtning normal fazosidagi geometriyasi har doim uch o'lchovli Minkovskiy fazosining geometriyasidir.

$F^2 \subset {}^2R_5$  sirt (3.1.3) tenglama bilan berilgan bo'lsin. Har bir  $M \in F^2$  nuqtada har doim  $\vec{n}_1, \vec{n}_2, \vec{n}_3$  normal vektorlarni aniqlash mumkin. Ushbu normal vektorlardan foydalanib, biz sirtning ikkinchi kvadrat formalarini hisoblaymiz.

$$II_1 = (d^2r \vec{n}_1), II_2 = (d^2r \vec{n}_2), II_3 = (d^2r \vec{n}_3),$$

bu yerda  $d^2r = \vec{r}_{uu} du^2 + 2\vec{r}_{uv} du dv + \vec{r}_{vv} dv^2$ .

$\vec{n}_1$  normal bo'yicha  $F^2$  sirtning ikkinchi kvadratik formasi

$$II_1 = (d^2r \vec{n}_1) = L_1 du^2 + 2M_1 du dv + N_1 dv^2$$

ko'rinishga ega. Sirtning ikkinchi kvadratik formasining ko'rinishi Yevklid fazosidagi kabi aniqlanadi, lekin  $\vec{n}_1$  normal vektorlarni tanlash xususiyatidan ba'zi koeffitsiyentlar nolga teng

$$L_1 = (r_{uu} \vec{n}_1) = \frac{x_{1uu}'' x_{2u}' - x_{1u}' x_{2uu}''}{\sqrt{x_{1u}'^2 + x_{2u}'^2}}, M_1 = (r_{uv} \vec{n}_1) = 0, N_1 = (r_{vv} \vec{n}_1) = 0$$

bo'ladi. Demak, sirtning ikkinchi kvadratik formasining ko'rinishi

$$II_1 = (d^2r \vec{n}_1) = \left[ \frac{x_{1uu}'' x_{2u}' - x_{1u}' x_{2uu}''}{\sqrt{x_{1u}'^2 + x_{2u}'^2}} \right] du^2 = \frac{(x_{1u}'^2 + x_{2u}'^2) \begin{vmatrix} x_{1uu}'' & x_{2uu}'' \\ x_{1u}' & x_{2u}' \end{vmatrix}}{\sqrt{(x_{1u}'^2 + x_{2u}'^2)^3}} du^2 = \tilde{k}_u ds_1^2$$

bu yerda,  $v = const$   $k_u$  – koeffitsiyent koordinat chizig'ining ikki o'lchovli  $Ox_1x_2$  tekislikdagi proeksiyasining egriligi,  $s_1$  – koordinata chizig'ining yoy uzunligi.

Xuddi shunday,  $\vec{n}_2$  normalga nisbatan  $F^2$  sirtning ikkinchi kvadratik formasini aniqlaymiz

$$II_2 = (d^2r \vec{n}_2) = L_2 du^2 + 2M_2 du dv + N_2 dv^2$$

bu yerda,  $L_2 = (r_{uu} \vec{n}_2) = 0, M_2 = (r_{uv} \vec{n}_2) = 0, N_2 = (r_{vv} \vec{n}_2) = \frac{-y_{1vv}'' y_{2v}' + y_{2vv}'' y_{1v}'}{\sqrt{-y_{1v}'^2 - y_{2v}'^2}}$ .

Bundan,

$$II_2 = (d^2 r \vec{n}_2) = \left[ \frac{-y''_{1v} y'_{2v} + y''_{2v} y'_{1v}}{\sqrt{-y'^2_{1v} - y'^2_{2v}}} \right] dv^2 = - \frac{(y'^2_{1v} + y'^2_{2v}) \begin{vmatrix} y''_{1v} & y''_{2v} \\ y'_{1v} & y'_{2v} \end{vmatrix}}{\sqrt{-(y'^2_{1v} + y'^2_{2v})^3}} dv^2 = \tilde{k}_v ds_2^2$$

bu yerda,  $u = const$   $\tilde{k}_v$  – egrilik ikki o‘lchovli  $Ox_4x_5$  tekislikka proeksiyasining egriligi,  $s_2$  – koordinata chizig‘i yoyi uzunligi.

Ikkinchi kvadratik formalarning uchinchi nolga teng bo‘lmagan koeffitsiyentlarga ega va uning geometrik qiymati sirt nuqtasidan  $\vec{n}_3$  normal yo‘nalishi bo‘yicha urinma tekislikgacha bo‘lgan masofani beradi.

$$II_3 = (d^2 r \vec{n}_3) = Ldu^2 + 2Mdu dv + Ndv^2$$

$$L = \frac{(y'^2_{1v} + y'^2_{2v})}{\sqrt{EG - F^2}} \begin{vmatrix} -x'_{1u} & x'_{2u} & 0 \\ x'_{2u} & x'_{1u} & z'_u \\ x''_{2uu} & x''_{1uu} & z''_{uu} \end{vmatrix}, \quad M = \frac{(y'^2_{1v} + y'^2_{2v})}{\sqrt{EG - F^2}} \begin{vmatrix} -x'_{1u} & x'_{2u} & 0 \\ x'_{2u} & x'_{1u} & 0 \\ 0 & 0 & z''_{uv} \end{vmatrix},$$

$$N = \frac{(x'^2_{1u} + x'^2_{2u})}{\sqrt{EG - F^2}} \begin{vmatrix} -y'_{1v} & y'_{2v} & 0 \\ y'_{2v} & y'_{1v} & z'_v \\ y''_{2vv} & y''_{1vv} & z''_{vv} \end{vmatrix}.$$

Har bir  $M \in F^2$  nuqtada uch turdagi normal egrilik mavjud, ya’ni

$$K_u = \frac{II_1}{I}, \quad K_v = \frac{II_2}{I}, \quad K_n = \frac{II_3}{I}.$$

$K_u$  va  $K_v$  koordinata chiziqlarining normal egriligi,  $K_n$  normal egrilik deyiladi.  $M \in F^2$  nuqtadagi  $\vec{N}$  vektor

$$\vec{N} = K_u \vec{n}_1 + K_v \vec{n}_2 + K_n \vec{n}_3$$

normal egrilik vektori deb ataladi.

Koordinata boshi  $x \in F^2$  nuqtada  $\{\vec{r}_u, \vec{r}_v, \vec{N}_3\}$  – vektorlarning chiziqli kombinatsiyasidan hosil bo‘lgan  ${}^2R_5$  fazoning uch o‘lchovli qism fazosini  $\omega$  deb olamiz.  $x \in F^2$  nuqtani o‘rab turgan uch o‘lchovli soha  $\omega$  uch o‘lchovli qism fazoga mos keladi, uch o‘lchovli aylanani ikki o‘lchovli sirt sifatida qarash mumkin.  $\omega$  qism fazodagi geometriya  $\{\vec{r}_u, \vec{r}_v, \vec{N}_3\}$  geometrik qiymatlari bilan aniqlanadi.

**Teorema 3.3.1.** Uch o‘lchovli  $\omega$  fazo har doim Minkovski fazosidir.

**Ta’rif 3.3.1.**  $\omega$  fazo ikki o‘lchovli  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirtning uch o‘lchovli kuzatuvchi fazosi deb ataladi.

$\omega$  fazo  $F^2$  sirtning  $W$  normal fazosidan farq qiladi. Lekin  $\omega$  kuzatuvchi fazoda  $F^2 \subset {}^2R_5$  ikki o‘lchovli sirt bir qiymatli aniqlanadi.  $\omega$  kuzatuvchi fazoning afzalligi shundaki, bazis vektorlari koordinata chiziqlariga urinma vektorlardir. Kuzatuvchi fazoni tanlash  $F^2 \subset {}^2R_5$  ikki o‘lchovli sirt geometriyasini o‘rganish imkonini beradi.

Bu holda  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirt nuqtalarining klassifikatsiyasi Minkovskiy fazosidagi ma'lum usullarga o'xshash bo'ladi.

${}^2R_5$  besh o'lchovli psevdoyevklid fazoda  $R_3$  uch o'lchovli Yevklid fazo uning qism fazosidir. Shuning uchun uch o'lchovli Yevklid fazosidagi barcha  $F^2$  ikki o'lchovli sirtlar  ${}^2R_5$  da mavjud. Bundan tashqari,  ${}^2R_5$  da to'rt o'lchovli qism fazolarida har xil turdagi ikki o'lchovli sirtlar ham mavjud. Shuning uchun  ${}^2R_5$  da to'rt o'lchovli qism fazolarda ikki o'lchovli sirtlarni o'rganish qiziqish uyg'otmaydi. Tabiiy savol tug'iladi:  ${}^2R_5$  fazoning to'rt o'lchovli qism fazolariga tegishli bo'lmagan ikki o'lchovli sirt mavjudmi?

**Ta'rif 3.4.1.** Agar  $F^2 \subset {}^2R_5$  ikki o'lchovli sirt fazoviy bo'lib, gipertekisliklariga tegishli bo'lmasa, u butun deb ataladi.

**Teorema 3.4.2.** Agar  $M \in F^2$  da

$$z_v^2 > (y_{1v}^2 + y_{2v}^2) \left[ \frac{z_u^2}{x_{1u}^2 + x_{2u}^2} + 1 \right]$$

shart bajarilsa, u holda urinma tekislikdagi geometriya Yevklid bo'ladi.

**Teorema 3.4.3.** Agar  $M \in F^2$  nuqtada  $z_v^2 < y_{1v}^2 + y_{2v}^2$  shart bajarilsa, u holda urinma tekislikdagi geometriya Minkovskiy hisoblanadi.

**Teorema 3.4.4.** Agar  $M \in F^2$  da

$$z_v^2 < (y_{1v}^2 + y_{2v}^2) \left[ \frac{z_u^2}{x_{1u}^2 + x_{2u}^2} + 1 \right]$$

shart mavjud bo'lsa, u holda urinma tekislikdagi geometriya Minkovskiy bo'ladi.

Bu teoremlarda ko'rib chiqilgan hollar alohida, chunki  $\vec{r}_u$ ,  $\vec{r}_v$  vektorlar urinma tekisligining bazis vektorlari emas.

**Teorema 3.4.5.** Psevdoyevklid fazoda (3.1.3) tenglama bilan berilgan butun Yevklid  $F^2$  sirti mavjud.

**Misol 3.4.2.** Urinma tekisligidagi geometriya Minkovskiy geometriyasidan iborat ikki o'lchovli butun  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirtga misol:

$$r = (u, v) = u^3 \vec{e}_1 + 3u^3 \vec{e}_2 + (4u^3 - 5v^3) \vec{e}_3 - 2v^3 \vec{e}_4 - 3v^3 \vec{e}_5$$

$$\vec{r}_u = \{3u^2, 9u^2, 12u^2, 0, 0\} \Rightarrow \vec{r}_u^2 > 0,$$

$$\vec{r}_v = \{0, 0, -15v^2, -6v^2, -9v^2\} \Rightarrow \vec{r}_v^2 > 0.$$

$$z_v^2 < (y_{1v}^2 + y_{2v}^2) \left[ \frac{z_u^2}{x_{1u}^2 + x_{2u}^2} + 1 \right] \Rightarrow 225v^2 < (36v^2 + 81v^2) \left[ \frac{144u^2}{9u^2 + 81u^2} + 1 \right].$$

**Misol 3.4.2.** Urinma tekisligidagi geometriya Yevklid geometriyasidan iborat ikki o'lchovli butun  $F^2 \subset {}^2R_5$  sirtga misol:

$$r = (u, v) = 4u^3 \vec{e}_1 + 9u^3 \vec{e}_2 - (6u^3 + 5v^3) \vec{e}_3 + v^3 \vec{e}_4 - 2v^3 \vec{e}_5$$

$$\vec{r}_u = \{12u^2, 27u^2, -18u^2, 0, 0\} \Rightarrow \vec{r}_u^2 > 0,$$

$$\vec{r}_v = \{0, 0, -15v^2, 3v^2, -6v^2\} \Rightarrow \vec{r}_v^2 > 0.$$

$$z_v^2 > (y_{1v}^2 + y_{2v}^2) \left[ \frac{z_u^2}{x_{1u}^2 + x_{2u}^2} + 1 \right] \Rightarrow 225v^2 > (9v^2 + 36v^2) \left[ \frac{324u^2}{144u^2 + 529u^2} + 1 \right].$$

Ushbu ikki o'lovli  $F^2 \subset {}^2R_5$  butun sirtlarning barcha urinma tekisliklaridagi geometriya Yevklid va Minkovskiy tekisligidan iborat.

## XULOSA

Ushbu dissertatsiya besh o'lchovli ikki indeksli psevdoyevklid fazoda ikki o'lchovli sirtlar geometriyasini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

${}^2R_5$  fazoning ta'rifi, asosiy geometrik tushunchalar berilgan.

Ko'rib chiqilayotgan fazoning gipertekisliklaridagi geometriyalar klassifikatsiya qilingan.

Haqiqiy va mavhum radiusli sferalarning ta'rifi berilgan. Haqiqiy radiusli sferadagi geometriyaning mavhum radiusli sferadagi geometriyaga o'xshashligi isbotlangan.

Sferik va silindrik koordinatalarda mavhum radiusli sfera tenglamasi va sfera bo'yicha tegishli metrikalar berilgan.

${}^2R_5$  fazoning qism fazolarida geometriya o'rganilgan.

Barcha uch o'lchovli giperbolik fazolar mavjudligi isbotlangan.

Ajraluvchi metrikaga ega fazolar qanday paydo bo'lishi isbotlangan.

${}^2R_5$  da uch o'lchovli elliptik fazoning mavjud emasligi isbotlangan.

Uch o'lchovli yarim elliptik fazolar mavjudligi isbotlangan.

Fazo gipertekisligida ikkinchi turdagi de-Sitter fazosining talqini keltirilgan.

Ikkinchi turdagi de-Sitter fazolari to'rt o'lchovli Minkovski fazosining mavhum radiusli sferasi ichiga talqin qilinishi isbotlangan.

${}^2R_5$  da chiziqlarning xossalari o'rganildi va chiziq uchun Frene formulasi hisoblab chiqilgan.

Chiziqning fazo sferasiga tegishli bo'lishi haqidagi teorema isbotlangan.

Ikki o'lchovli sirt differensial geometriyasining asosiy ta'rifi berilgan.

Vektor ko'rinishidagi sirt tenglamasining maxsus holi tanlanib ikki o'lchovli sirtning normal fazosi uchun bazis qurilgan.

Ikki o'lchovli sirtidagi geometriya doimo Minkovski fazosining geometriyasi ekanligi isbotlangan.

Ikki o'lchovli sirtning urinma tekisligidagi geometriyani aniqlash usuli keltirilgan.

Ikki o'lchovli tekislikda bir xil geometriyaga ega bo'lgan ikki o'lchovli butun sirtlarning mavjudligi isbotlangan.

Ikki o'lchovli sirtlar uchun kuzatuvchi uch o'lchovli fazo tushunchasi aniqlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**МАМАДАЛИЕВ БОТИРЖОН МУЛЛАМИНОВИЧ**

**ГЕОМЕТРИЯ ДВУМЕРНЫХ ПОВЕРХНОСТЕЙ В ПЯТИМЕРНОМ  
ПСЕВДОЕВКЛИДОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ ИНДЕКСА ДВА**

**01.01.04 – Геометрия и топология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В.2023.2.PhD/FM872.

Диссертация выполнена в Ферганского государственного университет и Ташкентского государственного транспортного университет.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ik-fizmat@nuu.uz](http://www.ik-fizmat@nuu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyouneb» ([www.ziyouneb.uz](http://www.ziyouneb.uz)).

**Научный руководитель:** Артикбаев Абдуллаазиз  
доктор физико-математических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Нарманов Абдиганнар Якубович  
доктор физико-математических наук, профессор

Султанов Бекзод Максуд ўгли  
доктор философии физико-математических наук (PhD)

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный университет

Защита диссертации состоится «7» сентября 2023 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана, института Математики. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871)227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №126). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «22» августа 2023 года.  
(протокол рассылки № 2 от «22» августа 2023 года).



**А. Садуллаев**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

**Р.М. Жураев**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.ф.-м.н. (PhD)

**Р.Б. Бешимов**  
Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

### **Актуальность и востребованность темы диссертации.**

Многие научно-практические исследования в физике и квантовой механике, проводимые в мировом масштабе, в большинстве случаев сводятся к исследованию задач неположительно определенных метрических пространств. Метод взятия времени с отрицательным знаком в отношениях между временем и пространством очень важен при изучении геометрии теории относительности. В каноническом представлении метрики Римана важную роль играет то, что пространственноподобные координаты имеют положительный коэффициент, а времениподобные координаты имеют отрицательный коэффициент. Многие технические вопросы решаются с помощью применения метода неположительно определенных метрических пространств. Поэтому результаты, полученные по теории поверхностей в псевдоевклидовом пространстве, важны как с теоретической, так и с практической точек зрения и считаются одним из актуальных направлений современной математики.

